



Harbiy jamoalarda o'zaro munosabat va muomala madaniyati - harbiy intizomni mustahkamlashning axloqiy xususiyatlari.

M.M.Ismatov
O'zMU XTO'M TMIU sikli
o'qituvchisi.

Annotation

Muallif mazkur maqolada O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Mudofaa sohasida, Harbiy jamoalarda o'zaro munosabat va muomala madaniyati - harbiy intizomni mustahkamlashning axloqiy xususiyatlari qoidalarini asoslab bergan

Аннотация

В данной статье автор обосновал этические особенности укрепления воинской дисциплины - культуры взаимодействия и обращения Вооруженных Сил Республики Узбекистан в оборонной сфере, в воинских коллективах

Kalit so'z: suverenitetiga, hududiy yaxlitligini, Harbiy huquq, intellectual, modellashtiradi, muloqot, qadr-qimmatini, ensiklopediyasidagi, xushfe'lllik, komandir.

Ключевое слово: суверенитет, территориальная целостность, военное право, интеллектуальное, моделирование, коммуникатив, достоинство, энциклопедия, доброта, командир.

Harbiy qurilish sohasidagi assosiy maqsad — professional armiyani, o'z tarkibida yaxshi tayyorlangan va ta'lif olgan, o'z xalqiga, ona zaminiga, Prezidentiga sadoqatli bo'lgan, o'z Vatanining sha'ni va qadr-qimmatini himoya qila oladigan jangchilarga ega bo'lgan armiyani bosqichma-bosiqch vujudga keltirishdan iborat.

«Davlat mudofaa qobiliyatining eng muhim qismi uning Qurolli Kuchlaridir. Ularning jangovar qudrati hamda bosqinchilarni Qurolli mojarolar va urush boshlab yuborishdan tiyib turish vazifalarini bajarishga tayyor darajasida hamda mamlakat xududiga bosqinchilik qilingan taqdirda qurol-yaroqlarning barcha turlaridan unumli foydalangan holda bosqinchilarni tor-mor qilishdan iboratdir», - deydi O'zbekiston Respublikasi Prezidenti - Qurolli Kuchlarimiz Oliy Bosh Qumondoni Shavkat Mirziyoev.

Miqdor jihatdan uncha katta bo'limgan, tezkor, yaxshi tayyorgarlikka ega, zamonaviy qurollar va texnika bilan ta'minlangan, O'zbekiston xavfsizligini ta'minlashga qodir bo'lgan Qurolli Kuchlarni shakllantirish oliy maqsadimizdir.

O'zbekiston Respublikasi davlat mustaqilligiga erishgan dastlabki kunlardanoq mamlakat mudofasini tashkil etish va Qurolli Kuchlar faoliyatining huquqiy mezonlarini ishlab chiqishga alohida ahamiyat berib kelinmoqda.



O'zbekiston Respublikasi Konstitutsiyasining XXVI bobi mudofaa va xavfsizlik masalalarini qamrab olgan. Qurolli Kuchlarni, harbiy xizmatni tashkil etish bilan bog'liq bo'lgan O'zbekiston Respublikasining «Mudofaa to'g'risida»gi va «Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida»gi qonunlari harbiy xizmatda huquqiy normalarning asosi bo'ldi.

O'zbekiston Respublikasi Oliy Majlisi tomonidan 2001-yil 11-mayda qabul qilingan «Mudofaa to'g'risida»gi qonun mamlakat mudofaasi tushunchasiga aniqlik kiritdi. Unda «O'zbekiston Respublikasining suverenitetiga, hududiy yaxlitligini, aholining tinch hayoti va xavfsizligini himoya qilishni ta'minlashning siyosiy, iqtisodiy, harbiy, ijtimoiy-huquqiy, axborot, tashkiliy va boshqa tadbirlari majmui tushuniladi», deb ko'rsatiladi.

Me'yoriy-huquqiy hujjatlarga rioya qilish, bu - har bir insonning madaniyat ko'rsatkichi bo'lib, ayniqsa Vatan himoyachilari uchun katta ahamiyat kasb etadi. Birinchi navbatda harbiy xizmatchilarda madaniyat ko'rsatkichining yuqoriligi ular huquqiy ongingin oshishiga yordam beradi, qonunchilikni, huquqiy tartibni, shu jumladan harbiy nizomiy tartibni ham mustahkamlaydi. Harbiy -huquqiy madaniyat bu o'rinda alohida ahamiyat kasb etadi va siyosiy madaniyatning tarkibiy qismi hisoblanadi.

Harbiy huquq o'z ichiga quydagilarni qamrab oladi:

Birinchidan, u harbiy xizmatchilarning munosabatlarini tartibga soladi.

Ikkinchidan, harbiy huquqiy me'yorlari yuqori darajadagi talabchanlik va qat'iyatlichkeit ruhida bo'lishni harbiy xizmatchilardan talab qiladi.

Uchinchidan, harbiy xizmatchilardan harbiy huquq me'yorlarini bajarish uchun yuqori mas'uliyat talab qiladi.

To'rtinchidan, Qurolli Kuchlarni tashkil qilish va boshqa harbiy munosabatlarni qat'iyan tartibga soladi.

Avvalambor, harbiy huquqni umumharbiy nizomlar tashkil qiladi. Ular harbiy qoida, me'yor, axloq va madaniyatni qamrab olgan, bir tizimga keltirilgan harbiy xizmatchilar xizmati va faoliyatini belgilab beruvchi qoidalardan tashkil topgan. Qurolli Kuchlarimiz nizomlari harbiy xizmatni tashkil qilish bo'yicha yo'naliishlarga bo'lingan bo'lib, shu yo'naliishlar bo'yicha huquqiy me'yorlarni belgilab beradi.

Harbiy xizmatchilar intellektual salohiyatini yuksaltirishda ijtimoiy-siyosiy tayyorgarlik muhim ahamiyat kasb etadi.

Harbiy xizmatchilar muomala (muloqot) madaniyatining asosini umumharbiy nizomlar tashkil etadi. Nizomlar munosabatlar namunalarini modellashtiradi va belgilab beradi, ular harbiy jamoada harbiy xizmatchilarning muomala munosabati tamoyillariga mos keladi. Belgilab berilgan talablar barcha harbiy xizmatchilar uchun qat'iy va muhimdir.

Mohiyatan nizomiy munosabatlar qoidalari shuni ko'rsatadiki, ular ongli va maqsadga yo'naltirilgan axloqiy qabul-qoidalardir. Nizomiy qoidalari bundan tashqari, nojo'ya xatti-harakatlardan saqlaydi, ogohantiradi, o'zaro munosabatlarga oid nizom



qoidalarining buzilishidan, harbiy xizmatchilarga intizomiy, ijtimoiy va axloqiy javobgarliklar haqida eslatib turadi. Bundan tashqari, ular harbiy xizmatchilarning jamoat joylarida yurish-turishlari va harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro madaniy munosabatlarni belgilaydi.

Harbiy xizmatchilarning o'zaro munosabatlarida muloqot katta o'rin tutadi. Shuning uchun muloqot nima degan savolga javob beramiz.

Muloqot — insonning asosiy ehtiyojlaridan biri bo'lib, inson qanday yoshdaligidan qat'iy nazar o'zgalar bilan muloqotda bo'ladi, bu hayotiy zarur omillardan biridir.

Harbiy xizmatchilarning munosabatlari tizimida muloqot alohida o'rin tutadi. Jisman va aqlan sust harakat bilan Vatanni himoya qilish mumkin emas.

Prezidentimiz Shavkat Mirziyoev aytganidek, biz eng zamonaviy talab va andozalarga javob bera oladigan Qurolli Kuchlarni barpo etmoqdamiz, milliy armiyamizning vujudga kelishi har birimizning faxr-iftixorimizdir. Milliy armiyamizning harbiy xizmatchilari teran fikrli, mustahkam irodali, o'ta sinchkov shaxslar bo'lmog'i lozim.

Qurolli Kuchlarda harbiy xizmatchilarning huquqlari, majburiyatlari va ular o'rtasidagi o'zaro munosabatlarni, ichki tartib qoidalarini belgilab berishda Ichki xizmat nizomi katta ahamiyatga ega. Mazkur nizomda o'zbek xalqiga xos axloqiy me'yordarga alohida ahmiyat qaratilgan. Harbiy xizmatchi har doim yuksak madaniyat, kamtarlik va vazminlikning namunasi bo'lib xizmat qilishi, askariy or-nomusni muqaddas saqlashi, o'z qadr-qimmatini himoya etishi va o'zgalar qadr-qimmatini hurmat qilishi lozim. Ular o'zlarining xulqiga qarab, bo'linma, harbiy qism, butun Qurolli Kuchlarning or-nomusi to'g'risida xulosa chiqarishlarini yodda tutishlari lozim.

Shuning uchun ham harbiy xizmatchilar ma'naviy-axloqiy tarbiyasida harbiy jamoalarning o'zgacha o'rni bor. Harbiy jamoalarda oldindan saqlanib kelinayotgan huquqiy, axloqiy va intizomiy an'analarning to'g'ri shakllanishi, umuminsoniylik tamoyillariga rioya qilinishi, qolaversa, askariy do'stlik, birodarlik va ahillik muhim ahamiyat kasb etadi.

Bilamizki, sharq xalqlarida avval salom, so'ng kalom, degan naql bor. Salomning O'zbekiston milliy ensiklopediyasidagi ta'rifi shunday: «Assalomu- alaykum» arabcha so'z bo'lib, sizga tinchlik, salomatlik tilayman», degani. Salomga javob berish — «Va alaykum assalom» — «sizga ham tinchlik, salomatlik tilayman» ma'nolarini bildiradi.

Qadimdan kishilar o'rtasida salomlashuvning o'ziga xos ma'naviy-axloqiy me'yorlari mavjud bo'lgan. Mana shunday axloqiy me'yorlarni Qurolli Kuchlar Ichki xizmat nizomi o'z ichiga qamrab olgan. Uning 43-45-moddalari bevosa harbiycha salomlashish qabul-qoidalariiga bag'ishlangan. Harbiycha salomlashish harbiy xizmatchilarning birodarlarcha jipsligining ifodasi, o'zaro hurmat va mushtarak madaniyati namoyon bulishining belgisi sanaladi deyilgan Ichki xizmat nizomining 43-moddasida.



Qurolli Kuchlarda mustahkam intizomni ta'minlash, harbiy xizmatchilar o'rtasidagi intizomiy munosabatlarni yo'lga solish, rag'batlantirish, jazolash va jazolarni qo'llash tartibi Intizom nizomida ko'rsatilgan. Harbiy intizom har bir harbiy xizmatchidan:

- harbiy qasamyodga sodiq bo'lishni, O'zbekiston Respublikasi qonunlari va Konstitutsiyasiga qat'iy bo'ysunishni;
- o'z harbiy burchini mohirlik va jasorat bilan bajarishni, harbiy ilmini sidqidildan o'rghanishni, harbiy va davlat mulkini asrashni;
- harbiy xizmat qiyinchiliklarini mardonavor engishni, harbiy burchini bajarish uchun o'z jonini ham ayamaslikni;
- sergak bo'lishni, harbiy va davlat sirlarini saqlashni;
- harbiy xizmatchilar o'rtasidagi nizomlarda ko'rsatilgan va belgilab berilgan o'zaro munosabatlarni qo'llab-quvvatlashni, jangovar birodarlikni mustahkamlashni;
- komandir (boshliq)larga va bir-biriga hurmat ko'rsatish, harbiycha salomlashish, xushfe'lllik qoidalariga rioya qilishni;
- jamoat joylarida o'zini munosib tutishni, nomunosib xatti-harakatlardan o'zini va boshqa harbiy xizmatchilarni tiyib qolishni, fuqarolarning or-nomusini himoya qilishni talab etadi.

Harbiy intizomni ta'minlashda harbiy xizmatchilardan avvalo o'zida axloqiylik, insoniylik, to'g'riso'zlik, halollik, shaxsiy mas'uliyat, harbiy qasamyodga sadoqat, harbiy burchga sharaf deb qarash kabi umuminsoniy va harbiy axloqiy me'yorlarni shakllantirish talab qilinadi. Buning uchun harbiy xizmatchilar ushbu me'yorlarni o'zida qaror toptirish uchun intilishi va ularga quyidagi jihatlar orqali erishmog'i lozim:

- yuksak axloqiy-ruhiy va jangovar fazilatlarni o'zida tarbiyalash, komandir (boshliq)lar buyruqlarini so'zsiz bajarish;
- o'z majburiyatlarini va harbiy nizomlarda belgilab berilgan me'yorlarni, qoidalarni bajarishga shaxsiy mas'uliyatini oshirish;
- Harbiy qism (bo'linma)da o'rnatilgan ichki tartibga bo'ysunish, kun tartibiga og'ishmay rioya qilish;
- jangovar tayyorgarlikda faol qatnashish, berilgan vazifalarni o'z vaqtida bajarish va kasbiy mahoratini oshirish;
- ijrochilikni nazorat qilish, harbiy xizmatchilar sha'nini hurmat qilish va bu haqda doimiy qayg'urish;
- Harbiy jamoada jamoatchilik ta'sirining oshishiga o'z hissasini qo'shish va jamoada birodarlik, o'rtoqlik, o'zaro ko'makdoshlik sifatlarni shakllantirish.

Shu tariqa harbiy-axloqiy munosabatlar me'yorlari qoida, majburiyat, an'ana, buyruq, ko'rsatma va yo'l-yo'riqlarda o'z aksini topadi.



Harbiy jamoalardagi ma'naviy boshqarish, bo'y sunish va nojo'ya harakatlarni tahlil qilish, bir-biriga o'rnak bo'lish, jamoa fikrini quvvatlash va ma'naviy-ruhiy holat ham alohida ahamiyatga ega. Ayniqsa, shaxsiy namuna harbiy xizmatchilar axloqini boshqarishda juda muhim.

Axloqiy namuna harbiy xizmatchining egallab turgan lavozimiga emas, balki uning shaxsiy fazilatlari, haqiqatgo'yligi, dunyoqarashi, tarbiyasi, bilim darajasi va kasbiy mahoratiga bog'liq.

Harbiy xizmatchilar, harbiy jamoalar madaniy munosabatlarini mustahkamlash va shakllantirishda boshliq tomonidan o'z qo'l ostidagi harbiy xizmatchilar o'rtasidagi o'zaro nizomiy munosabatlarning qo'llab-quvvatlanishi, ularning turmush tarzi, maishiy hayotini qat'iy nizom talablari asosida tashkillashtirishi, harbiy jamoalardagi ijtimoiy-ruhiy sog'lom muhit, harbiy xizmatchilarning o'z jamoasidan faxrlanishi, uning jangovar an'analariga hurmati alohida o'rin egallaydi.

Xizmatni endi boshlagan harbiy xizmatchilar ularga nisbatan alohida e'tibor va sinchkovlikni talab qiladi. Eng muhimi — ularga xizmatlarining ilk kunlaridan do'stlik, o'rtoqlik, o'zaro ko'makdoshlik sifatlarini, nizom talablarini tug'ri targ'ibot qilish, o'rgatish, ularda harbiy xizmatga nisbatan mehr uygotish, harbiy xizmat madaniy munosabatlarini ularning tafakkuriga to'g'ri singdirish juda muhim ahamiyat kab etadi. Qurolli Kuchlar Ichki xizmat nizomida harbiy hayot va uning me'yorlari aniq belgilab berilgan.

Foydalilanigan normativ-huquqiy hujjatlar:

1. O'zbekiston Respublikasining "Umumiy harbiy majburiyat va harbiy xizmat to'g'risida"gi 2002-yil 12-dekabrdagi 436-II-son Qonuni;
2. O'zbekiston Respublikasi Prezidentining 2019-yilda 12-sentyabrdagi PQ-4447-son qarori bilan tasdiqlangan O'zbekiston Respublikasi fuqarolarining harbiy xizmatni o'tash tartibi to'g'risida" Nizom;
3. Vazirlar Mahkamasining 2017-yil 9-oktyabrdagi 809-son qarori bilan tasdiqlangan "O'zbekiston Respublikasi oliy ta'lim muassasalarining harbiy tayyorgarlik o'quv bo'linmalari to'g'risida" gi Nizom.
4. O'zbekiston Respublikasi Qurolli kuchlarining Umumxarbiy nizomlari Toshkent sh, 1996 yil 9 oktabr, PF-1571-sonli farmoni

Internet manbalari:

1. <https://lex.uz/>
2. <https://strateg.uz/index.php?newc=770&lang=uz/>